

O'QITUVCHINING NUTQ MADANIYATI-UNING SALOHIYATI KO'ZGUSIDIR.

ABDULLAYEV DILOROMXON G'OFUROVNA

Bag'dod tumani 1-son kasb-hunar maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

ABDULLAYEV AVAZBEK MAXAMADSODIQOVICH

Bag'dod tumani 1-son kasb-hunar maktabi tarbiya fani o'qituvchisi

RAXIMBERDIYEVA UMIDAXON ABDURAZZOQ QIZI

Bag'dod tumani 1-son kasb-hunar maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Pedagogning bilim darajasi, aql-idrokining ko'lami, fikrlashdagi yetukligi, uning jamoasi orasida hurmatga sazovar bo'lishiga sabab bo'ladi. Shu hurmatni saqlab, oqlab turishi uchun hamisha izlanishda bo'lishi darkor. Shu bilan bir qatorda uning nutq madaniyati ham muhim ro'l o'ynaydi.

Kalit so'zlar: Pedagog, o'qituvch, nutq madaniyati, nutq texnikasi, so'z, qobiliyat, fikr, bilim, salohiyat, mutaxassis

Hozirgi paytda o'qituvchilarning bilim salohiyatiga, malakaviy darajasiga, ijodkorlik faoliyatiga, qadr-qimmatiga, mavqeyiga katta e'tibor berilmoqda. Xususan muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Bugungi kunda O'zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko'makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir" [1] deb ta'kidlagan fikrlarida yuqoridagi fikrlarimizning o'z isbotini ko'rishimiz mumkin.

Pedagogning bilim darajasi, aql-idrokining ko'lami, fikrlashdagi yetukligi, uning jamoasi orasida hurmatga sazovar bo'lishiga sabab bo'ladi. Shu hurmatni saqlab, oqlab turishi uchun hamisha izlanishda bo'lishi darkor. Shu bilan bir qatorda uning nutq madaniyati ham muhim ro'l o'ynaydi. Nutq madaniyatida so'zni to'g'ri qo'llay olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogning asosiy quroli – so'z. U qayralgan, binobarin, o'tkir, ko'p qirrali bo'lishi, vaqt o'tishi bilan o'tmaslashib bormasligi lozim. Buning uchun pedagog badiiy adabiyotni, izohli lug'atlarni, qomuslarni ko'p o'qishi, mutolaa qilishi, notanish so'zlarni yon daftariga izoxlab yozib olishi, vaqti-vaqti bilan takrorlab turishini tavsiya etamiz.[3]

Nutq madaniyati yuqori bo'lgan o'qituvchi nafaqat darslarda, pedagogik kengashlarda balki o'quvchilar bilan birgalikdagi tadbirlar va yig'ilishlarda ham o'zining qobiliyati bilinib turadi. Chunki bevosita o'qituvchi nutqida o'z texnikasidan foydalanadi. Uning ovozi, sehrli so'zlardan foydalana olish qobiliyati o'quvchilarga sezilarli darajada havas tuyg'usini uyg'otadi. Bu esa o'quvchilarda izlanish, ya'ni shu o'qituvchiga o'xshash tuyg'usini shakllantiradi. Bu esa o'qituvchining yutug'i

hisoblanadi. Shu bilan birga nutq texnikasi ega bo'lgan o'qituvchi darsga kirganda berilgan mavzuni ravon, aniq, toza, mazmundor va o'quvchilar tushuna oladigan sodda badiiy tilda yetkaza bera olish qobiliyati ham uning yutug'idir. Aks holda o'qituvchi o'z kasbini mutaxassisi bo'lsada nutq madaniyatida kerakli so'zlardan o'rinli foydalana olmasa ko'zlagan maqsadiga erisha olmaydi ya'ni o'quvchiga mavzu doirasida o'z ma'lumotlarini yetqazib bera olmaydi. Shuning uchun o'qituvchi nutqining tozaligi ahamiyatli hisoblanadi.

Nutqning tozaligi deganda, eng avvalo, uning adabiy til me'yoriga muvofiq kelish - kelmasligi tushuniladi. Nutqimizning sofliqiga, asosan, quyidagilar ta'sir qiladi:

1. Mahalliy dialekt va shevalarga xos so'z, ibora, shuningdek, grammatik shakllar, so'z va so'z birikmalarining talaffuzi, urg'usi.
2. O'rinsiz qo'llangan chet so'z va so'z birikmalari.
3. Jargonlar.
4. Vulgarizmlar.
5. Nutqda ortiqcha takrorlanadigan «parazit» so'zlar.
6. Kanselyarizmlar.

Parazit so'zlar deb ataluvchi lug'aviy birliklar ham til madaniyati uchun yotdir. Ular asosan, so'zlashuv nutqida ko'p ishlatilib, notiqning o'z nutqini kuzatib bormasligi, e'tiborsizligi natijasida paydo bo'ladi va bora-bora odatga aylanib qoladi. [2] Nutqda ortiqcha takrorlanadigan «parazit» so'zlari o'qituvchilarda eng ko'p uchraydigan nuqson hisoblanadi. Bularga o'qituvchilarning masalan, shuningdek, demak, shuning uchun, shunday qilib, kerak kabi so'zlarni misol keltirishimiz mumkin.

O'qituvchi uchun nafaqat so'z, balki uning so'zlardagi ohangi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki dars jarayonida turfa xil vaziyatga tushish mumkin. Ulardan biri auditoriyadagi muhitni o'zgartirib o'ziga jalb qilishi zarur. Buni esa o'qituvchi ovoz tembri orqali amalga oshirishimiz mumkin. Tembr- turli xil ovozlarni indentifikatsiya qilish imkoniyatini beradi. Tebrni ovoz balandligi va boshqa karakteristikalar bilan yanglishtirish kerak emas. Bunda o'qituvchining ovoz tembri ham o'quvchilarga o'z ma'lumotlarini yetkazishda muhim o'rin tutadi. Auditoriyani boshqararishda, o'ziga jalb qilishda 40% qanday gapirayotganligi, 40% qanday ko'rinishi, 20% nima haqida gapirayotganligiga qaratiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, nutq madaniyati o'qituvchining salohiyatini belgilovchi eng asosiy vositadir. Chunki so'z pedagogning asosiy quroli hisoblanadi. Uning muhim vaziyatda kerakli so'zdan o'rinli foydalana olish o'qituvchining salohiyatidan darak beradi. Buning uchun esa ko'p mutolaa qilish, mashq qilish, ilmiy izlanish va iqtidor talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. .Sh.M.Mirziyoyev “Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi” bo‘yicha videoselektor yig‘ilishidagi ma’ruzasi.2020 y
2. R.Rasulov, Q. Mo‘ydinov “Nutq madaniyati va notiqlik san’ati” Toshkent 2015. 23-bet
3. Xamrayeva Zulayxo Egamovna ” NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK SAN’ATINING O‘QITUVCHI FAOLIYATIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI” “Talqin va tadqiqotlar” Respublika ilmiy-uslubiy jurnali №8